

XAVFSIZ IMMUNIZATSIYA

Akramova Munavvar

O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni Saqlash Vazirligi

Oliy Ta’lim, Fan Va Innovatsiyalar Vazirligi

Namangan Viloyati Hududiy Boshqarmasi

2- Son Namangan Abu Ali Ibn Sino Nomidagi

Jamoat Salomatligi Texnikumi

Hamshiralik ishi kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada xavfsiz immunizatsiya tamoyillari, vaksinalarning xavfsizligi, samaradorligi va immunizatsiya jarayonidagi potentsial xavflar tahlil qilinadi. Maqola vaksinalar va ularning xavfsizligi haqida keng bilimlarni taqdim etadi, shuningdek, jamoatchilikni vaksinalar to‘g‘risida noto‘g‘ri ma’lumotlardan himoya qilish va to‘g‘ri axborot berish muhimligini ta’kidlaydi. Ilmiy va amaliy yondashuvlar asosida vaksinalashda xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha tavsiyalar keltiriladi.

Kalit so‘zlar: immunizatsiya, xavfsizlik, vaksinalar, xavflar, samaradorlik, aholi salomatligi.

Immunizatsiya hozirgi kunda infeksiyon kasalliklar oldini olishda eng samarali vosita hisoblanadi. Biroq, vaksinalarning xavfsizligi va samaradorligi bo‘yicha ba’zi shubhalar mavjud. Xavfsiz immunizatsiya tamoyillari asosida vaksinalash jarayonini yaxshilash va potentsial xavflarni kamaytirish mumkin. Ushbu maqola vaksinalarning xavfsizligini o‘rganish va uning ahamiyatini tushuntirishga qaratilgan.

Immunizatsiya □ bu organizmni turli yuqumli kasalliklarga qarshi himoya qilish maqsadida maxsus usulda immunitet hosil qilish jarayonidir. Bu jarayon organizmga kasallik keltiruvchi mikroblar yoki viruslarga qarshi kurashish qobiliyatini beradi.

Immunizatsiya odatda quyidagi usullar bilan amalga oshiriladi:

1. Vaksinatstsia: Maxsus tayyorlangan vaksinalar yordamida organizmda sun’iy immunitet shakllantiriladi. Vaksinalar o‘lik yoki zaiflashtirilgan mikroblar, viruslar yoki ularning toksinlaridan tayyorlanadi.

2. Passiv immunizatsiya: Tayyor antitanachalar organizmga kiritiladi. Bu usul tezkor himoya ta’minlasa-da, qisqa muddatli bo‘ladi.

Immunizatsiya yordamida quyidagi kasalliklardan himoyalaniish mumkin:

- Qizamiq
- Difteriya
- Ko’k yo’tal
- Gepatitlar

- Gripp
- COVID-19 va boshqalar.

Bu jarayon jamoat sog'lig'ini yaxshilashda katta ahamiyatga ega bo'lib, infeksiyalar tarqalishini sezilarli darajada kamaytiradi.

Xavfsiz immunizatsiya quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- 1) Tibbiy nazorat: Vaksinalarning ishlab chiqilishi va qo'llanilishi qat'iy tibbiy nazorat ostida amalga oshiriladi.
- 2) Samaradorlik va xavfsizlik: Vaksina xavfsiz va samarali bo'lishi kerak. Buning uchun barcha vaksinalar klinik sinovlardan o'tkaziladi.
- 3) Inson salomatligini ta'minlash: Vaksinalar faqat tavsiya etilgan aholi guruhlari uchun zarur bo'lgan miqdorda va shaklda qo'llaniladi.

Vaksinalar odatda xavfsiz, ammo ba'zi holatlarda nojo'ya ta'sirlar kuzatilishi mumkin. Bular asosan engil va vaqtincha bo'ladi (masalan, isitma yoki qichishish). Vaksinalarning xavfsizligi monitoringi doimiy ravishda amalga oshiriladi va har qanday yomon oqibatlar darhol tahlil qilinadi.

Vaksinalar, emlashda ishlatiladigan moddalar -infeksion kasalliklarning oldini olish yoki davolash maqsadida qo'llaniladigan preparatlar. Mikroorganizmlar shuningdek ularning zararsizlantirilgan toksinlaridan tayyorlanadi, organizmga yuborilganda tegishli yuqumli kasalliklarga nisbatan sun'iy orttirilgan faol immunitet vujudga keladi. Tirik, o'ldirilgan, kimyoviy vaksina va anatoksinlar farq qilinadi. Tirik vaksina, poliomiyelit, qizamiq, gripp, o'lat, tulyaremiya, silga kasallik qo'zg'atish xususiyatini yo'qotgan, biroq immunogen xossalarga ega bo'lgan, qo'zg'atuvchiga qarshi himoya antitelolar hosil qiladigan maxsus kuchsizlantirilgan mikroorganizmlardan tayyorlanadi. Bunda mikroorganizmlar sun'iy ozuqa muhitida yoki hayvon organizmida uzoq undiriladi. Tirik vaksina qo'llanilganda immunitet barqaror bo'lib, uzoq saqlanadi.¹

Emlashda vaksinalarni teri ustiga, teri ostiga, muskul va og'iz orqali yuborish mumkin. Vaksinalar bilan emlash jadvali har xil: bir marotaba, ikki, uch marotaba va hokazo. Sun'iy faol immunitet immunizatsiya tugaganidan so'ng 2-3 hafta o'tgach paydo bo'ladi va oylab, hatto yillab saqlanib qoladi. Takror emlash (immunitet darajasi susayganda) revaksjatsiya deb ataladi.

Sun'iy passiv immunitet organizmning himoya faoliyatini oshirish, ko'zda tutilgan tegishli yuqumli kasallikka qarshi chidamlilik yoki boshlangan kasallikning kechishini yengillashtirish maqsadida qilinadi.

Vaksinashda aholini faollashtirish tadbiri:

¹ World Health Organization (WHO). Immunization Safety Review.

•Axborot va tushuntirish: Jamoatchilikni vaksinatsiya jarayoni va uning xavfsizligi haqida to‘g‘ri ma‘lumotlar bilan ta‘minlash.

•Ommaviy axborot vositalari va ilmiy tashkilotlar: Vaksinalashda ishonchni oshirish uchun ommaviy axborot vositalari va ilmiy tashkilotlarning faol roli.

Xavfsiz immunizatsiya amaliyotini quydagicha o‘tkazish mumkin:

1. Profilaktik choralar: Har bir vakcina uchun aniq protokollar va tavsiyalar mavjud, ular xavfsizlikni ta‘minlashda muhim ahamiyatga ega.

2. Monitoring va xatoliklarni tuzatish: Vaksinalarning xavfsizligini muntazam tekshirish va yomon oqibatlar bo‘lsa, tezkor chora ko‘rish.

Bugungi kunda Respublikamizda ko‘pgina og‘ir kechuvchi yuqumli kasalliklarga qarshi rejali ravishda va epidemiologik holatlarga qarab bolalar va xavfli guruhga kiruvchi katta kishilar davlat tomonidan bepul emlanadi. O‘tkazilgan chora-tadbirlar tufayli O‘zbekiston hududida shol kasalligi oxirgi yillarda qayd etilmayapti, shuningdek, bo‘g‘ma, qizamiq, tepki, gepatit kasalliklari bolalar orasida keskin kamaydi

Xulosa qilib aytganda, xavfsiz immunizatsiya salomatlikni saqlash va infeksiyon kasalliklarni oldini olishda muhim rol o‘ynaydi. Vaksinalar to‘g‘ri ishlab chiqilgan va qo‘llanilsa, ular keng tarqalgan kasalliklar oldini olishda samarali va xavfsizdir. Aholini vaksinalashdagi eng muhim omil bu xavfsizlik va samaradorlikni ta‘minlashdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- World Health Organization (WHO). Immunization Safety Review.
- Global Vaccine Safety Initiative. WHO, 2019.
- Offit PA. Vaccines and the Immune System: The Basics. Journal of Pediatrics.
- McKinlay J, Gagnon F. Vaccine Safety and Risk Communication. Vaccine.
- Tashkent Institute of Immunology. Xavfsiz immunizatsiya bo‘yicha amaliy qo‘llanma.
- A.Zokirxodjaev □Bolalarda yuqumli kasalliklar□. Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun qo‘llanma. Toshkent, 2002 yil